

**TA'LIM JARAYONLARIDA YOSHLARNING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI****Xudoyqulova Sevinch Sherzod qizi**

+998883837210

Eshbekova Nafisa Yusuf qizi

+998886345105

nafisaeshbikova@gmail.com

SHDPI Tillar fakulteti Xorjiy til va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: Eshmuratova Dildor Normurotovna

Annotatsiya: Kreativ fikrlash bugungi globallashuv davrida innovatsiyalar va muammolarni hal qilish uchun zarurdir. Ushbu maqola ta'lif muassasalarida yoshlarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning turli usullari tahlil qilinadi. Pedagogik strategiyalar, o'quv yondashuvlari va darsdan tashqari tadbirlarni o'rjanib chiqib, biz o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun o'qituvchilar amalga oshirishi mumkin bo'lgan samarali amaliyotlar xususida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Kreativ, ta'lif, axborot, jamiyat, ko'nikma, modernizatsiya, moslashuvchanlik, shaxsiy va kasbiy rivojlanish.

Abstract: Creative thinking is essential for innovation and problem solving in today's era of globalization. This article analyzes various ways of developing creative thinking abilities of young people in educational institutions. By examining pedagogical strategies, instructional approaches, and extracurricular activities, we discuss effective practices teachers can implement to foster creativity in students.

Key words: Creativity, education, information, society, skills, modernization, flexibility, personal and professional development.

Аннотация: Творческое мышление имеет важное значение для инноваций и решения проблем в современную эпоху глобализации. В данной статье анализируются различные способы развития способностей творческого мышления молодежи в образовательных учреждениях. Исследуя педагогические стратегии, учебные подходы и внеклассную деятельность, мы обсуждаем эффективные методы, которые учителя могут применять для развития творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: Креативность, образование, информация, общество, навыки, модернизация, гибкость, личностное и профессиональное развитие.

Kreativlik – bu ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalalar, yechimlar yoki badiiy ifodalarni yaratish qobiliyati demakdir. Bundan tashqari, fikrlashni, bir-biriga bog‘liq bo‘lмаган тушunchalarni bog‘lashni hamda yangi innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish uchun tasavvurni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Kreativlik turli shakkarda namoyon bo‘lishi mumkin, masalan, san’at, musiqa, yozuv, muammolarni hal qilish, ilmiy kashfiyat va hokozo. O‘zbekiston rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tgandan keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlarga alohida e’tibor bera boshlandi. Jumladan, O‘zbekiston yoshlaringning «Kamolot» ijtimoiy harakati» «O‘zbekiston yoshlari ittifoqi» deb o‘zgarishi yoshlari masalasidagi islohotlarning boshlang‘ich nuqtasi sifatida qaraladi. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlarni yaratish, har bir oliy ta’lim muassasasini jahoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatishi, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlari auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi [1]. Bugungi kunda jahonda ta’limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, yosh pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta’limning ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtai-nazardan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta’lim mazmunini internatsionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida talabalarda kreativlik qibiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

Bugungi axborotga boy jamiyatda kreativ fikrlash qobiliyati har qachongidan ham muhimroqdir. Kreativlik yoshlarga yangi muammolarga moslashish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy hissa qo‘sish imkonini beradi. Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishda ta’lim tizimi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu maqola yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullarini ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, qiziqarli va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitining muhimligini ta’kidlaydi. Kreativ fikrlash yangi g‘oyalarni yaratish, mavjud tushunchalarni qayta ko‘rib chiqish va muammolarga o‘ziga xos tomonlardan yondashish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. U moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik va bir-biriga bog‘liq bo‘lмаган тушunchalar o‘rtasida aloqa o‘rnatish qobiliyati kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ta’lim sharoitida ijodiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat akademik samaradorlikni oshiradi, balki o‘quvchilarni innovatsion muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini talab qiladigan kelajakdagi kasblarga tayyorlaydi. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta’lim siyosati va pedagogikasida ijobjiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to‘xtamga kelishda ko‘maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo‘lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko‘nikmani ta’lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo‘ladi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi

pedagogikani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog'liqdir. Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarini shakllantirishdir [2]. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarining ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi [3].

Kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari:**1. So'rovga asoslangan ta'lim**

So'rovga asoslangan ta'lim o'quvchilarini savol berishga, tadqiqot o'tkazishga va muammolarni hal qilishga undaydi. Bu usul qiziqishni kuchaytiradi va o'quvchilarga mavzularni chuqur o'rghanishga imkon beradi. O'z savollarini shakllantirish va ularga javob izlash orqali talabalar tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradilar.

2. Loyihaga asoslangan ta'lim

Loyihaga asoslangan ta'lim talabalar uzoq vaqt davomida loyiha ustida ishlashni o'z ichiga oladi. Bu usul amaliy tajribaga urg'u beradi va talabalarni bilimlarni amaliy kontekstda qo'llashga undaydi. Bu usul jamoada ishlash, muloqot va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. San'at integratsiyasi

San'atni o'quv dasturiga kiritish ijodiy fikrlashni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Rasm chizish, musiqa va drama kabi mashg'ulotlar o'z-o'zini ifoda etish va xayoliy fikrlashni rag'batlantiradi. Badiiy ta'lim o'quvchilarda keng dunyoqarashni rivojlantirishga va muammolarga ijodiy yondashishga yordam beradi.

4. Hamkorlikda o'rghanish

Hamkorlikda o'rghanish guruh ishiga va tengdoshlarning o'zaro ta'siriga urg'u beradi. Birgalikda ishlash orqali talabalar turli nuqtai nazar va g'oyalarni baham ko'rishlari mumkin, bu esa ijodkorlikni oshiradi. Bu usul dialog, muzokaralar va tanqidiy fikr yuritishga undaydi.

5. Texnologiyalar yordamida kengaytirilgan o'qitish

Texnologiyadan foydalanish ham kreativ fikrlashni osonlashtirishi mumkin. Raqamli vositalar talabalarga yangi g'oyalarni o'rghanish, global miqyosdagi tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va boy manbalardan foydalanish imkonini beradi. Texnologiya individual ijodiy uslublarga mos keladigan shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribalarini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Kreativ fikrlash ko'nikmasini mashq qildirish natijasida Bo'lajak pedagoglar faqatgina o'rnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma'noga boy aloqalarni o'rnatish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo'ladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo'ladi. Inson miyasi doimo to'g'ri ishlashga odatlangan, ya'ni, miya uchun faqat birligina to'g'ri javob mavjud bo'ladi. Vaholanki, bu kreativlik emas. Kreativlik – bo'lajak pedagoglarning o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun bo'lajak pedagoglar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim [4]. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta'lim muhitiga integrallashishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. AKT —bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta'minotga ega bo'lgan kompyuterlar va ma'lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuning 1-moddasida fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari belgilab berildi hamda har kimning bilim olishdek konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilganligi ta'kidlandi. Hozirgi davr ta'lim bosqichining yangi talablariga ehtiyoj yuqorilagini ko'rsatmoqda. Bunda masofaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash va uni boshqarish ham muhim o'rinn tutadi. Bu borada, Respublikamizda qator dolzarb ishlar olib borilmoqda. Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan o'qitish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tajribali pedagoglar o'qitish jarayonini isloh qilish yo'llarini idirishda davom etib quymasdan, pedagogik texnologiyalari yoki o'qitish texnologiyalarini yaratishga katta ahamiyat kasb qilmoqda [5].

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ularning shaxsiy va kasbiy o'sishi uchun zarurdir. So'rovga asoslangan ta'lim, loyiha uchun asoslangan ta'lim, san'at integratsiyasi, hamkorlikda o'rganish, texnologiyaga asoslangan ta'lim kabi turli ta'lim usullarini tatbiq etish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Zamonaviy dunyo talablari rivojlantirishda davom etar ekan, ta'lim sharoitida ijodkorlikni rivojlantirish muhim ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Qolaversa, o'smir yoshdag'i o'quvchilarda tanqidiy, kraetiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularda ijodiy fikrlash hamda g'oyalarni generatsiyalash ko'nikmasini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratmog'i lozim. Chunki yangi g'oyalarni yarata oladigan yoshlargina jamiyat va insoniyat ravnaqini yuksaklarga ko'tara oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. – B.39.

2. G'afforov. Ya.X. Maktab islohati va o'qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Sgientific Journal. 2020, B-482.
3. Jummagul Nomozovna Abduraxmanova, Saodat Abdurashidovna Toshtemirova.(2020). Innovation texnologiyalar va axborot madaniyatini shakllantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri. Science and Education.1(7). 436-442.
4. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
5. Усманов Р.Н. Интеллектуализация процесса принятия решений в условиях нечеткой исходной информации // Aloqa Dunyosi. –Ташкент, 2007.